

BUXGALTERIYA HISOBINING MILLIY STANDARTI

To'rayeva Gulizahro

Guliston davlat universiteti „Iqtisodiyot“ kafedrasida o'qituvchisi

Ko'chinboyeva Gulmira

Axmedova Madinabonu

Narzullayeva Nurjahon

Maxmanazarova Mehriniso

Guliston Davlat Universiteti "DO'YQT" yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda biznes sub'ektlarida buxgalteriya hisobini yuritishning amaldagi tartiblari ular faoliyatini haqqoniy aks ettirish, biznesning potensial qiymatini baholash, muhim, sifatli boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qator tarixiy rivojlanish tendensiyalari kabi muammolar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Biznes, moliya, tadbirkorlik foydasi, asosiy o'lgach, muhimlik moliyaviy hisobotda, offseting, mol-mulk.

Kirish.

Ma'lumki, biznes bozor iqtisodiyotidagi asosiy mashg'ulotlardan biri bo'lib, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish manbai hisoblanadi. U ishlab chiqarish, tijorat, konsalting, bank va boshqa faoliyat sohalarini qamrab oladi. Xodimlar soni, ishlab chiqarish hajmi va faoliyat sharoitlariga ko'ra kichik, o'rta va yirik korxonalar farqlanadi. Biznesning eng keng tarqalgan turi kichik biznesdir: odatda, u bir hil mahsulot ishlab chiqaradigan va bozorda kichik ulushni egallagan kichik korxonadir.

Muxokama va natijalar.

Moliyaning muhim elementi sifatida resurslarni taqsimlash kategoriya hisoblanadi. Bu kategoriya qadimiydir va insoniyat jamiyatining paydo bo'lishidan beri mavjud. O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan bo'lib, u maqsad va holatiga qarab to'rt darajadan iborat. 1- chi daraja: Qonun hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va hukumat qarorlari. Bular: 30.08.1996 yildagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi Qonuni va 13.04.2016 yildagi 404-sonli yangi tahrirdagi Qonun qabul qilindi; O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi; va boshqa qonunlar; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari. 24.08.1994 yildagi "O'zbekiston Respublikasining xalqaro amaliyotda qabul qilingan buxgalteriya hisobi va statistika tizimiga o'tish davlat dasturi to'g'risida" gi 433-i-sonli qarori (24.05.1996 y.dagi 193- sonli qarorining yangi tahriri) va boshqalar.

2-chi daraja: Buxgalteriya hisobi qoidalarini ifodalovchi buxgalteriya standartlari, masalan, BHMS-1 — "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot "(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998 yil 14 avgustdagi 474-son bilan ro‘yxatga olingan), BHMS-12 - "Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish" (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 16 yanvardagi 596-son bilan ro‘yxatga olingan) va boshqalar. Hozirgi kunda 23 ta BHMS ishlab chiqilgan.

3- chi daraja: Yo‘riqnoma va uslubiy ko‘rsatmalar: O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining, tarmoq vazirliklari va idoralarning yo‘riqnomalari, me‘yoriy hujjatlar.

4- chi daraja: Tashkilotning ichki hujjatlari: hisob siyosati; hisobning ish rejasi; hisobni yuritish axborotini qayta ishlash texnologiyalari va boshqalar. Barcha to‘rt darajasi buxgalteriya hisobini me‘yoriy tartibga solish bo‘yicha umumiy o‘zaro bog‘liq tizimini tashkil etadi.

Buxgalteriya hisobi xo‘jalik hisobining ajralmas qismi hisoblanadi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojlanishi xo‘jalik hisobining uch turga bo‘linishiga olib keldi:		
Operativ	Buxgalteriya	Statistik
- bu ular ro‘y bergan vaqtda ularni boshqarish maqsadida alohida faktlar yoki jarayonlar ustidan kuzatish va joriy nazorat qilish tizimi	- moliyaviy faoliyatni boshqarish va nazorat qilish maqsadida iqtisodiy axborotlarni uzluksiz o‘zaro bog‘langan holda aks ettirish tizimidir	- ularni boshqarish va nazorat qilish maqsadida ommaviy (umumiy) hodisalar, faktlar yoki Jarayonlar haqidagi ma’lumotlarni to‘plash va umumlashtirish tizimi

Xalqaro standartlarda buxgalteriya hisobini muayyan iqtisodiy ob‘ekt haqida moliyaviy axborotlarni baholovchi, qayta ishlovchi va uzatuvchi axborot tizimi sifatida belgilaydi.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan bo‘lib, u maqsad va holatiga qarab to‘rt darajadan iborat. Buxgalteriya hisobi xo‘jalik hisobining ajralmas qismi hisoblanadi. Xo‘jalik hisobi uch turga: Operativ, Buxgalteriya, Statistik ga

bo'linadi. Buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish chog'ida buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS) va buxgalteriya hisobi asosiy tamoyillari qo'llanishini ifodalaydi. Buxgalteriya balansi uning resuslari va moliyaviy tarkibi, hisobot vaqtidagi moliyaviy ahvolini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni № 404. –T.: 2016 y

2. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlari. T.: - O'BAMA. 2004.

3. Sh. Ergasheva, A.K.Ibragimov, N.K.Rizaev, I.R.Ibragimova Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma.// -T.: Iqtisodiyot, 2019. -227 bet.

4. Turayeva G. FACTORS FOR INCREASING THE STABILITY OF GRAIN PRODUCTION AND PERFORMANCE INDICATORS //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2023. – T. 2. – №. 6. – C. 45-50.

5. Turayeva, G., Abdullayeva, G., Abdurasulova, N., Ibragimova, A., Meliyeva, L., & Olimjonova, M. (2022). XALQARO BOZORLARDA "MADE IN UZBEKISTAN" BRENIDAN KENG FOYDALANISH IMKONIYATINI YARATISH MEZONI. *Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: Nazariy va amaliy izlanishlar*, 1(27), 99-102.

6. Qaxxorovna, T. G. (2023). The Impact of Artificial Intelligence on the Economy. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(2), 57-61.

7. Qaxxorovna, T. G., Djurayevich, Z. A., & Bobomurot o'g'li, N. R. (2023). QISHLOQ XO 'JALIGIDA INNOVATSION FAOLLIKNI OSHIRISH. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(2), 80-84.

8. Qaxxorovna, T. G., & Ikrom o'g'li, X. J. (2023). QISHLOQ XO'JALIGIGA BOZOR MEXANIZMLARINI JORIY QILISH. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(2), 85-90.

